

**TABIIY VA IJTIMOIIY EKOLOGIYANING MULOQOT XULQIGA TA'SIRI****Muminov Sidikjon Mirsobirovich**

Farg'ona davlat universiteti professori,  
Filologiya fanlari doktori. Farg'ona, O'zbekiston

[siddiqjon.mominov@bk.ru](mailto:siddiqjon.mominov@bk.ru)

**Jo'rayeva Shaxnoza Mo'ydinovna**

Farg'ona davlat universiteti  
magistranti

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada muloqot xulqiga tabiiy va ijtimoiy ekologiyaning ta'siri farg'onalik yozuvchi Tilavoldi Jo'rayev asarlari asosida tahlil va tadqiq etilgan. Har bir hududning o'ziga xos so'zlashuv uslubi bu o'sha hudud aholisining bevosita ekologiyasiga ta'sirini ko'rishimiz mumkinligi maqolada aks etgan.*

***Kalitso'zlar:** nutq, hudud, xoslanish, tabiiy va ijtimoiy ekologiya, muloqot xulqi, sheva, so'zlashish uslubi.*

**ВЛИЯНИЕ ПРИРОДНОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА  
КОММУНИКАТИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ****АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется и исследуется влияние природной и социальной экологии на коммуникативное поведение на примере произведений ферганского писателя Тилаволди Жураев. В статье показано что мы можем видеть прямое влияние уникального стиля речи каждого региона на экологию жителей региона.*

***Ключевые слова:** речь, территория, развитие, природноная и социальная экология, коммуникативное поведение, диалект, стиль, речи.*

**TO THE COMMUNICATION BEHAVIOR OF NATURAL AND SOCIAL  
ECOLOGY EFFECT****ANNOTATION**

*In this article, the impact of natural and social ecology on communication behavior is analyzed and researched based on the works of Fergana writer Tilavoldi Jorayev. It is reflected in the article that we can see the direct effect of the speech style of each region on the ecology of the inhabitants of that region.*

**Key words:** *Speech, territory, development, natural and social ecology, communicative behavior, dialect, style, river.*

**KIRISH** Turli hududlarda yashovchi kishilar Muloqot xulqining, eng avvalo ularning jonli soʻzlashuv tili shevasida namoyon boʻlishi bois asosiy masalaga kirishishdan oldin sheva (dialekt) va u bilanshugʻullanuvchi soha sotsiolingvistlarning asosiy vazifalari oʻzaro farqlari toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtishga toʻgʻri keladi. Tilshunoslarning taʻkidlashicha oʻzbek dialektologiyasida dialektning

maxsus konsepsiyasi ishlab chiqilmagan. Sheva, dialekt, lahja atamalari rus dialektologiyasida говор, диалект, наречие atamalalari taʻsirida yaratilgan [6, 51].

“Sheva, - deya taʻrif beradi akademik SH. Abdurahmonov,- biror tilning oʻziga xos fonetik,leksik va grammatik xususiyatlariga ega boʻlgan eng kichik qismi: lahja-shu xususiyatlarni oʻzida birlashtiruvchi shevalar yigʻindisi. Dialekt termini dialektologik adabiyotlarda koʻpincha lahja maʼnosida, baʼzan sheva maʼnosida hamqoʻllanadi. Yozuvchi Tilovoldi Joʻrayev asarlarida ham ekologiyaning muloqot xulqiga taʻsirini koʻrishimiz mumkin. Yozuvchining “Bozor dunyo” romanida bunga misollarni keltirishimiz mumkin. Avvalo syujet va kompozitsiyasi juda mukammal qurilganligini eʼtirof etish lozim. Oddiygina bozor tasviridan boshlangan voqealar asta-sekin rivojlanib, konflikt, tugun va kulminatsiyaga koʻtariladi va oxirida yechim- yovuzlikning inqirozi, ezgulikning gʻalabasi bilan tugaydi. Asarning eng muhim yutuqlaridan biri- uning xalqchil, hayotiyligidir. Unda shahar va qishloq odamlari oʻz kasbi, oʻz jinsi, mavqei darajasida gapiradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Insondagi oʻzgarishlar, engavvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqi da namoyon boʻladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga taʻsir etadi. Oʻzbeklar nutqida choʻpon va dehqonlarga nisbatan “Dalasiday bagʻri keng” iborasi qoʻllaniladi. Zero, keng joyda yashab, ishlaydigan kishilarning feʼl-atvori ham shunga yarasha boʻladi. Bunday muhitdagi kishilar baqirib-chaqirib gapirish, xohlagan paytda ovozing boricha qoʻshiq aytish imkoniyatiga ega boʻlganlari holda, shaharning tor, beton devorli xonalarida yashaydigan kishilar sharoit taqozosiga koʻra koʻpincha past ovozda gaplashishga, qoʻshiq aytgilari kelganida ham damlarini ichlariga yutishga yoki past ovozda xirgoyi qilishga majbur boʻladilar. Issiq, diqqinapas xonada kishining asabiylashish darajasi ham ortiq boʻladi. Asli tabiatning bir parchasi boʻlgan inson esa hamisha oʻz ona maskaniga talpinib yashaydi Kitob sahifalarida joy talashib yohud dafʼatan kirib qolgan notovon dehqonning qopini tortib jiqqamusht boʻlayotgan ovozi oʻtkir, ogʻzi shaloq bozorchi xotinlarning yoqimsiz tovushlari, bu bozorchi xotinlarning kundalik hayoti bozor bilan bogʻliq boʻlganligi oʻsha muhitga moslashganliklari bemalol baqirib chaqirib bir- birlari

bilan muloqot qilishlarini ham ekologik muhit deb olishimiz mumkin. Yoki har qanday odam bilan imtihon topshirayotgan talaba singari gaplashayotganday muomala qiladigan keksa professorning vazmin, shikasta ovozi ham eshitilib turadi. Ekologik sharoit va turmush tarzi, eng avvalo, shahar bilan qishloq o'rtasida farqlanadi. Qishloq tabiati u yerda yashovchi kishilar xulq-atvori, jumladan, MXda ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ya'ni, qishloqliklar nutqi uchun tabiiylik va soddalik qanchalik xos bo'lsa, shaharliklar nutqi turli til sathlaridagi o'ziga xos tartibliligi, binobarin, adabiy tilga yaqinligi bilan farqlanib turadi. Qishloqliklar nutqi asosan dialektologik nuqtai nazardangina o'rganilgan bo'lsa, shaharliklar nutqining ayrim jihatlari Rossiya sotsiologvistiklari tomonidan tadqiq etilgan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shahar va qishloqliklar MXni sotsiologvistik nuqtai nazardan tadqiq etish g'oyatda muhim bo'lib, buhaqda V. V. Kolesov quyidagilarni yozadi: "Shahar tili (nutqi)ni o'rganish ko'p jihatdan muhimdir. Bu til taraqqiyotining har bir davrida milliy tilning oily ko'rinishi bo'lib, adabiy tilning nufuzli asosi hisoblanadi. Shahar tili sharoitini bilmasdan turib, adabiy tilning paydo bo'lishi, uning u yoki bu stilistik xususiyatlarini tushunish mushkul. Shahar nutqini bilmasdan turib, har bir sotsial guruhning hozirgi tilga, madaniyatga va u orqali umuman ijtimoiy qoidalarga qo'shgan aniq hissasini baholash qiyin. O'zbek tilining boyib borishi albatta ichki va tashqi manbaga tayanadi. Ichki manba ya'ni shevalar, argolar, jargonlar, varvarizm, va vulgarizmlar asosida boyib boradi". Yozuvchi Tilovoldi Jo'rayev ham o'zasarlarida Farg'ona viloyatining aynan Yozyovon tumani va uning atrofidagi qishloq aholisini muloqot shakllarini asarda keltirgan. Yana bir parcha orqali misol keltiramiz. ***"Xuddi mashetta Rais aspal sahnini ko'rsatdi, moshindan shopirga makkam ushab tur dedim. Bo'g'oltir chiqdi, kastir chiqdi, ag'dan- bag'dan bo'lib besh-o'n kishi tomoshabin ko'peydi. Bola turipti, g'am yemiydi, padaringga la'nat. Pelimni bilatta ,yengini ko'ziga ishqab, ko'zini siydidigini oqizib kelyapti. Yaxshi bo'ldi dedi, bir buvisini oldida adavini beray! Bo'g'oltirga buvisini yaqinlashtirma, ushab tur, dedim. Kastir bilan xoramini ushab turgan shopirga: Yotqiz, bos aspalga, qo'lini qayir! Dedim. Shu zahoti tappa bosishdi"*** [ , ]

Ushbu, bo'g'oltir, kastir, mashetta, pel, aspal kabi so'zlar muloqot xulqining xududiy xoslanishiga misol bo'la oladi. Shu bilan birga ushbu so'zlarni hech qanday bo'yoqlarsiz o'zgartirishlarsiz ishlatilishi asarning xalqchilligini yanayam ochib beradi.

T.Jo'rayevning asarlarida ham yozuvchining o'ziga xosligini ko'rishimiz mumkin. Qishloq aholisining so'zlashish uslublari faqatgina o'sha xududga tegishli bo'lgan so'zlashuv uslubini bilamiz. Biz misol tariqasida keltirayotgan so'zlar shevaga oid so'z emas, albatta, unda bir so'zning boshqa hududda ishlatiladigan so'zning

variant desak yanglishmagan bo‘lamiz. Quyida keltirilgan misoldagi so‘zlar orqali bilib olamiz: *”Kuch kirib qoganakan xoramiga uch kishi, yo‘q, eplab, qo‘lini orqaga yotqizishdi. O‘zini hadeb ko‘tarib uryotovdi, kastir belidan bosdi. Buvisi dodlayotovdi, ”O‘chir ovoziyni”, dedim. Shu topda valasepetta sartarosh kep qoldi. To‘xta, opke ustareyni, kallasini optasha manavi xoramini!”, dedim. Ha qo‘rqmaysan-a. Ko‘zi kasasidan chiqib, og‘zidan oq ko‘pik kepketi, boshini ag‘dan-baqa tasheydi, xolos. Shoshilganidan ustani qo‘liga chach oladigan moshina kiripti. Menga qarovdi, “Ol chachini, moshinkeyni sol!”, dedim, Uyam o‘ylab o‘tirmey—qani, gapimi ikki qip ko‘rsin! - moshinkani boshini orqasidan sob, peshonasigacha bir op chiqdi. “To‘xta!”, dedim, bir fikr kep qoldi.”Endi u qulog‘idan bu qulog‘igacha ob o‘t, ana o‘shanda kress bo‘ladi!”, dedim. Usta aytganimni qildi, - deya Xixiladi rais”.*<sup>2</sup>

Ushbu keltirilgan parchadagi so‘zlardan ko‘rishimiz mumkinki, qishloqliklarga xos bo‘lgan oddiy so‘zlashuv uslubi asardagi keltirilgan so‘zlar adabiy tildagi so‘zlar faqatgina yozyovonliklarga xos bo‘lgan uslubdir.

Kishi qaysi hududda yashasa o‘sha hududning urf-odatiga, yashash tarziga, so‘zlashish uslubiga ko‘nikadi. Har bir hududni o‘zining so‘zlashish tili va uslubi bor. Shahar aholisi yumshoqroq, adabiy tilgayaqinroq yo‘nalishda so‘zlashsa, vodiy qishloqlari odamlari esa o‘ziga xos soddalik, chapanilik yoki jaydarilik uslubida so‘zlashadi ularning tilida so‘zlarni dag‘alligini oddiy va xalqchilligini ko‘rishimiz mumkin. Huddi shunday ijtimoiy ekologiya albatta o‘z-o‘zida har qanday hududning muloqot xulqiga ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi.

## XULOSA

Dialektni o‘rganish jamiyatning boshqa a‘zolaridan o‘z tillari jihatidan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlar nutqiy odatlarini o‘rganishga qaratilganligi uchun ko‘pchilik sotsiolingvistlar o‘z sohalarini dialektologiya bilan chambarchas bog‘liq holda tasavvur etadilar. Biroq o‘zining tadqiqot uslubi, asosiy eotibori nuqtai nazaridan zamonaviy sotsiolingvistika dialektologiyadan keskin farqlanadi. Dialektologiya masalaga asosan hududiy aspektda yondashib ish ko‘rsa, sotsiolingvistika til obrazlarini ma‘lum bir vaqt doirasida olib va gapiruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan munosabatlarni ifodalashga urinib, ekstralingvistik mezonlar bilan sinxron yondashuvdan foydalanishga harakat qiladi.

O‘zbek dialektologlari uzoq vaqt “qancha ko‘p fakt yig‘sak, shuncha yaxshi” shiori ostida ish ko‘rib keldilar. Ularning qonuniy mesrosxo‘rlari bo‘lgan sotsiolingvistlarning asosiy vazifasi esa yig‘ilgan boy materiallarga va sinxron

<sup>2</sup>. Ж ў р а е в Т. Қишлоқликлар.— Тошкент: Наврўз, 1993. 96 б<sup>2</sup>

kuzatishlarga tayangan holda har biri o'ziga xos olam bo'lgan insonlar MXni atroflicha tadqiq etishdan iboratdir. Inson muhiti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki qismdan - tabiiy va ijtimoiy muhitdan iboratdir. Inson mana shu ikki muhit o'rtasida dunyoga keladi, o'sadi va voyaga etadi. Ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa MXga ta'sir etadi. Ekologik sharoit va turmush tarzi, eng avvalo, shahar bilan qishloq o'rtasida farqlanadi. Qishloq tabiati, shahardagi tezkor hayot u erda yashovchi kishilar MXda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

MX ekologiya va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishlari haqida fikr yuritilganda kishilarning yashash, o'qish, ishlash joylarining o'zgarib turishligini, turli dialekt vakillari o'rtasida bo'ladigan nikohlarni, ularning ota-onalari qaysi sheva vakili ekanliklarini inobatga olish lozim.

Murojaat etiketning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u turli dialektlarda o'ziga xos shakllarga ega bo'lishi mumkin. Buni bilmaslik esa kommunikantlar o'rtasida turli tushunmovchilik va noroziliklarni keltirib chiqaradi.

#### **ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Doniyorov X. *Qipchoqdialektlaringleksikasi*. – Toshkent: Fan, 1979, 100-b
2. Hakimov M. *Yozuvchivaxalqtili*. – Toshkent: Fan, 1971. 175 b
3. Jo'rayev T. *Qishloqliklar*. – Toshkent: Navro'z, 1993.
4. Mo'minov S.M. *O'zbekmuloqotxulqiningijtimoiy-lisoniyxususiyatlari. Monografiya*. – Farg'ona, 2021. 137-173- b
5. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. *O'zbekdialektologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. 231-b
- 6.
7. Xudoyberganova D. *O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Filol. fan. dok. ... diss.* – Toshkent, 2015.
8. Mirsobirovich, M. S. (2022). *Linguopoetic Features of the Language of Isajan Sultan's Novel "Alisher Navoi"*. *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 78-84.
9. Mirsobirovich, M. S., & Tavakkalovna, N. M. (2022). *On the Use of Peraphrases in the Works of Malika Mirzo*. *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 72-77.
10. Mo'minov, S. (2022). *Alisher Navoi-about the State and its Governance*. *EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE*.
11. Mirsobirovich, M. S. (2022). *Linguistic Features of the Work—"The Country in My Grandmother's Stomach"*. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 292-297.



12. Mirsobirovich, M. S. (2022). *Territorial Characteristics of Communication Behavior in TilavoldiJoraev's" Villagers. EuropeanMultidisciplinaryJournalofModernScience*, 298-303.

13. Муминов, С., & Мўминов, Ш. (2022). *COMMUNICATIVE BEHAVIOR OF THE LEADER AND ITS STUDY IN THE SOCIOLINGUISTIC ASPECT. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 3(4).

14. Mirsobirovich, M. S. (2022). *ISAJON SULTON "ALISHER NAVOIY" ROMANINING LINGVOPOETIK ASPEKTDA O 'RGANILISHI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 36-42.

15. Мўминова, Т. С. (2022). *UPDATING THE PRINCIPLES OF THE STORY IN MODERN UZBEK LITERATURE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 3(3).

16. Орипова Г.М., Ахмаджонова О.А., Холматов О.У.У., Муминова Т.С. (2022). *ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ В ЛИТЕРАТУРЕ. Международный научный журнал Бируни*, 1 (2), 304-309.

17. Ubaydullayev, K., & Muminov, S. (2022). *PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A NAME OF ANIMALS AND PLANTS FOCUS ON THE SCIENTIFIC RESEARCH. OpenAccessRepository*, 8(1), 118-126.